OILAVIY MUHITNING BOLA PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Xakimjonova Go'zal Abdunabi qizi
O'ZMPU Professional ta'lim va san'at fakulteti talabasi
Oxunjonova Ma'mura Abdunabiyevna
Toshkent viloyati Piskent tumani 40-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oilaviy muhitning bola shaxsining psixologik rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamda xarakter shakllanishidagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Oilaning ijtimoiy-ma'naviy muhit sifatidagi ahamiyati, ota-onaning tarbiyadagi mas'uliyati va farzand kamolotiga ta'siri ilmiy usulda yoritilgan. Sg'lom oilaviy muhitning bolada onglilik, xulqlilik, mustaqil fikrlash va ma'naviy yetuklikni shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan. Nosog'lom oilaviy muhitning esa bolaning psixologiyasi va tafakkuriga salbiy ta'siri misollar orqali keltirib o'tilgan. L.S. Vygotskiyning yondashuvi asosida bola rivojlanishida muloqot, taqlid va ijtimoiy muhitning ahamiyati izohlangan.

Kalit so'zlar: oilaviy muhit, ma'naviy tarbiya, psixologik rivojlanish, bola psixologiyasi, ma'naviy ijtimoiy muhit, tarbiya, ota-ona, Vygotskiy nazariyasi, yaqin rivojlanish zonasi, taqlid, muloqot, barkamol avlod.

THE INFLUENCE OF THE FAMILY ENVIRONMENT ON THE PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF A CHILD

Khakimjonova Go'zal Abdunabi qizi
Student of the Faculty of Professional Education and Arts of the NPUU
Okhunjonova Ma'mura Abdunabiyevna
Teacher of school No. 40, Piskent district, Tashkent region

Annotation: The article discusses the role of the family environment in the psychological development of a child's personality, spiritual and moral upbringing and

character formation. . The importance of the family as a socio-spiritual environment, the responsibility of parents in upbringing and its impact on the development of a child are scientifically covered. The role of a healthy family environment in the formation of consciousness, character, independent thinking and spiritual maturity in a child is revealed. The negative impact of an unhealthy family environment on the psychology and thinking of a child is given through examples. Based on the approach of L.S. Vygotsky, the importance of communication, imitation and the social environment in the development of a child is explained.

Keywords: family environment, spiritual education, psychological development, child psychology, spiritual social environment, upbringing, parents, Vygotsky's theory, zone of proximal development, imitation, communication, harmonious generation.

Влияние семейной среды на психологическое развитие ребенка

Хакимджонова Гузал Абдунаби кизи

Студентка факультета профессионального образования и искусств УНПУ

Охунджонова Маъмура Абдунабиевна

Учитель школы № 40, Пискентский район, Ташкентская область

Аннотация: В статье рассматривается роль семейной среды в психологическом развитии личности ребенка, духовно-нравственном воспитании и формировании характера. Научно освещены важность семьи как социально-духовной среды, ответственность родителей за воспитание и ее влияние на развитие ребенка. Раскрыта роль здоровой семейной среды в формировании сознания, характера, самостоятельного мышления и духовной зрелости ребенка. На примерах показано негативное влияние нездоровой семейной среды на психологию и мышление ребенка. На основе подхода Л.С. В статье объясняется значение общения, подражания и социальной среды в развитии ребенка, согласно теории Выготского.

Ключевые слова: семейная среда, духовное воспитание, психологическое развитие, детская психология, духовно-социальная среда, воспитание, родители, теория Выготского, зона ближайшего развития, подражание, общение, гармоничное поколение.

Oila – haqiqiy ma’naviyat o‘chog‘i, mafkuraviy tarbiya omili va muhiti. Aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi. Oilaviy muhit – oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar kechadigan ijtimoiy-ma’naviy, axloqiy muhitni ifodalovchi tushuncha. Oliaviy muhitning bola psixologik rivojlanishida, tarbiyasida va ma’naviyatida katta ahamiyatga ega. Tarbiyaning mohiyatida ijtimoiylik, jamoatchilik mavjud bo‘lib birinchidan oila muhitidagi tarbiyaning o‘zi ham ota-ona, katta avlod, qarindosh urug‘lar, (bobo-buvi, amma-xola, tog‘a-amaki, opa-akalar), qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla tomonidan, farzandlarimizni, ijtimoiy hayotga tayyorlashni, ikkinchi tomondan, esa jamiyat muhitining o‘zi ham o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’lum yo‘nalishda tarbiyalashga ko‘maklashadigan tizim sifatida tashkil etilishida o‘z ifodasini topadi. Unda ijtimoiy voqelikdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqadorlik, boshqarish, nazorat qilish va ijtimoiylashtirish kabi bir qator ijtimoiy omillar mavjud.

Oila muhitida shakllantirilgan onglilik va xulqlilik shaxsni illatlardan saqlaydi. Shu ma’noda, oila ma’naviy-axloqiy muhitini o‘rganishda fikr yangiligi va ma’naviy yetuklik paradigmasi asosli bo‘lib, o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ma’naviy yetuklikka intilish bu jamiyat hayoti va inson faoliyatida shaxsning o‘z insoniy pozisiyasiga mustahkam ega bo‘lishi bo‘lib, u ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida xulq-atvorga muvofiq yashashidir. Bolaning rivojlanish davridan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, sog‘lom muhit yaratilsa, psixologik jihatdan ham yetuk shaxs bo‘lib yetishadi. Ko‘p kuzatuvlar natijalarida ko‘riladiki, nosog‘lom oilaviy muhitda o‘sgan bolalar ongida,

psixologiyasida, tafakkurida nuqsonlar bo‘lishi mumkin. Bunda esa ota onaning ro‘li katta. O‘zaro munosabatta ham bolaga o‘rnak bo‘lsa, bola ko‘zgu kabi ko‘radi va qiladi.

Bir guruh psixologlarning aniqlashicha, xarakterning yangi sifatlarini yuzaga kelishi va ularning mustahkamlanishi real vaziyatni taqozo etadi. Shuning uchun ham xatti-harakat odatni, odat esa xarakterni va xarakter taqdirni yaratadi, degan fikrmavjud. Xarakter qandaydir turg‘un va o‘zgarmas xususiyat emas. Jumladan, bolalik yoshida xarakterningxususiyatlari odatda “jiddiylashish”, “boshqacharoq bo‘lib qolish” tarzida ko‘rinadiki, bu hol ijtimoiy omillardan ya’ni, atrofdagilarga nisbatan munosabatning murakkablashuvi, gormonal yetilish natijasida namoyon bo‘la boshlaydi. Oiladagi o‘ta qat’iy chegaralangan oila a’zolarining munosabatlari, bunda, ota –onalarning o‘ta talabchanligi, bolalarda ning xarakter xususiyatlarida nuqsonli xislatlarini keltirib chiqaradi. L.S. Vygotskiy o‘zining madaniy-tarixiy yondashuvi orqali bola rivojlanishining asosiy omili sifatida ijtimoiy muhitni ko‘rsatdi. Uning fikricha, bola rivojlanishida kattalar bilan o‘zaro muloqot, til va jamiyat asosiy rol o‘ynaydi. U “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini joriy etib, bolaning hozirgi va potensial rivojlanish darajasi o‘rtasidagi farqni aniqlab berilgan. Shunin uchun bola bilan muloqot jarayonida o‘zaro hurmat, erkin fikrni shakllantirib, tafakkurini kengaytirish kerak. 4-5 yoshli bolalarda “o‘xshatish, taqlid qilish” davri bo‘lgani uchun bolalar ko‘rganini va eshitganini qilishga harakat qiladi, bu esa bolaning psixologik rivojlanishiga ta’sir qiladi. Bolalar psixologiyasi — bu inson shaxsining shakllanishidagi eng muhim bosqichlarni tahlil qiladigan, unga mos tarbiya va ta’lim berish yo‘llarini belgilab beradigan ilmiy yo‘nalishdir.

Xulosa qilganda, oila jamiyatning eng muhim qismi biri bo‘lib, shaxsning ma’naviy, axloqiy va psixologik shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bola tarbiyasida oilaviy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishi uning kelajakdagi xarakteri, dunyoqarashi hamda ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning o‘zaro

munosabati, farzandga bo‘lgan e’tibori va tarbiyadagi mas’uliyati bolaning ruhiy kamolotida muhim omil hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va ijobiy muloqot mavjud bo‘lgan oilalarda voyaga yetgan bolalar ma’naviy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlaydigan va sog‘lom shaxs bo‘lib shakllanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxtiyorov Axror Baxtiyorovich. “Oilaviy munosabatlarning bolalarning psixologik rivojlanishiga ta’siri hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” // *Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi*. – May, 2025.
2. “Oilaviy muhit” // Oyina.uz
3. Qahhorova Matluba. “Oila muhiti barqarorligida ma’naviy-axloqiy tarbiya muammosi” // *Islom tafakkuri* jurnali. – 2021. – №4.
4. Qulmurodova Ruxshona. “Bolalar psixologiyasi rivojlanishi va shakllanishi”.